



## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. TA'LIMDA MULTIMEDIA TIZIMLARI.....</b>	<b>6</b>
1.1 Multimedia tizimlarining tarkibi, tuzilishi, texnik va dasturiy vositalari.....	6
1.2 Multimedia ilovalaridan 3D texnologiyalari.....	21
1.3 Phet programmasining an'anaviy tajribalardan farqi.....	25
<b>II BOB. PHET PROGRAMMASIDAGI FIZIKA FANIGA OID NAMOYISH TAJRIBALARINI O'TKAZISH VA MODELLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....</b>	<b>35</b>
2.1 Fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida Phetdan foydalanish.....	35
2.2 Virtual laboratoriya va Phet.....	50
2.3 Ispringda fizika fanidan test savollarini tayyorlash.....	57
<b>XOTIMA.....</b>	<b>69</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>70</b>

## **Kirish**

Biz tezkor texnikaviy taraqqiyot, shiddat bilan rivojlanayotgan va muntazam yangilanayotgan zamonaviy yuqori texnologiyalar, axborot – kompyuter tizimlari asrida yashayotganligimizni unutmashimiz kerak.

*I.A. Karimov*

O`zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev yangi yil arafasida 2016 yil dekabrda mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashdi. Bunda ilm-fan yutuqlari - taraqqiyotining muhim omili mavzusidagi nutqida “Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyatlar kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o`zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi” - degan edi. Shu maqsaddan kelib chiqib mamlakatimizda ilm-fanni rivojlanishiga kata e`tibor berilayotgan bir vaqtda tabiiy fanlarni zamon yangiliklari bilan boyitib borishi asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Ulkan samoviy kashfiyotlar shular jumlasidandir.

Shularni e`tiborga olgan holda O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risidagi qonunida ta`limni yanada takomillashtirish maqsadida Respublika hududida ta`limni umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litseylar va kasb hunar kollejlari orqali amalga oshirish maqsad qilib qo`yilgan bo`lsa, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da milliy tajribalarni tashkil qilgan holda hamda jahonning ilg`or yutuqlarini e`tiborga olib, oliy o`quv yurtlarida ha tomonlama shakllangan va yetuk mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo`nalishlari belgilab berilgan.

**Mavzuning dolzarbligi:** Fizika fanidan an'anaviy laboratoriya ishlarini olib borishda Colorado universiteti tomonidan kiritilgan Phet programmasining talqini. Phetdan foydalangan holda virtual laboratoriyalarni talabalarga taqdim etish.

**Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi:** Ushbu ishning asosiy maqsadi "Fizika" fanining Phet dasturi bo'yicha namoyish tajribalarini o'quvchilarga tushunarli qilib, hayotiy tarzda yetkazib berish.

**Bitiruv malakaviy ishimizning vazifalari:** Bitiruv malakaviy ishimizning vazifasi qilib Phet dasturidan foydalangan holda fizika fanidan virtual laboratoriya yaratish bo'yicha uslubiy qo'llanma tayyorlash.

**Bitiruv malakaviy ishimizning o'rganilganlik darajasi:** Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida kerakli manbalar bir tizimga keltirildi. Colorado universitetining Phet dasturi yordamidan foydalanib fizika fanidan virtual laboratoriyalar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ldim. Phet dasturi bilan ishlash jarayonida Java bilan ishlashni o'rgandim. Phet dasturidagi laboratoriyalar fizik mutaxassislar yordami va ma'lumotlari yordamiga muvofiq o'rganib tayyorlandi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti:** Web browser (Opera, Chrome), fizikaviy ma'nalar va ma'lumotlar, internet tarmog'i, Phet dasturi, java dasturi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning obyekti:** Bitiruv malakaviy ishimning obyekti bo'lib asosan Phet dasturi va undagi virtual laboratoriyalar hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi:** Fizika darslarini o'tish jarayonida Phet dasturidan unumli foydalanish va uni qo'llash.

**Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi:** Hozirgi kunga qadar fizika fanlari odatiy laboratoriyalar orqali o'tiladi, bu fanga doir adabiyotlar, ma'ruza matnlari mavjud. Bu fandan elektron o'quv kurs ya'ni Phet dasturi orqali virtual laboratoriyalar bilan darslarning o'tilishi bitiruv malakaviy ishimning yangiligi hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati:** Fizika fani mutaxassislarining ishlari tubdan osonlashadi, fizika fanlarini o'tishda laboratoriya xonalarining keragi bo'lmaydi, eng qulaylik tomoni tajribalarni qo'rqmasdan,

xavfsiz tarzda o'tkazish mumkin bo'ladi. Barcha o'quvchilar to'liq darsga qiziqtirilib jalb qilinadi. Qolaversa, mustaqil tarzda bu dastur orqali fizika fanini yoki uning qaysidir qismini o'rganib olish ham mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosi:** Bitiruv malakaviy ishi Phet tizimida virtual laboratoriyalarni tayyorlash metodologiyasiga asoslangan.

**Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari:** "Phet dasturida virtual laboratoriyalarbo'yicha uslubiy qo'llanma tayyorlagandan so'ng talabalar bu qo'llanmani ma'lumotlari bilan tanishib chiqib keyin dars jarayonida to'liq foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibi va hajmi:** Kirish, II ta bob, har bir bobning qisqacha xulosasi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va xotimadan iborat bo'lib, jami 70 betda bayon qilingan. I bob "Ta'limda multimedia tizimlari" haqida ma'lumot kiritilgan bo'lib, u 34 betdan iborat. II bob "Phet programmasidagi fizika faniga oid namoyish tajribalarini o'tkazish va modellashtirish imkoniyatlari" haqidagi ma'lumotlardan tashkil topgan bo'lib, 35 betdan iborat.

## **I BOB. TA'LIMDA MULTIMEDIA TIZIMLARI**

### **1.1 Multimedia tizimlarining tarkibi, tuzilishi, texnik va dasturiy vositalari.**

Multimedia tushunchasi keng ma'noli bo'lib, turli soha mutaxassislari uni qo'llanish mazmuniga qarab turlicha talqin etishga harakat qiladilar.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompakt disklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi.

Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- "inson-kompyuter" interaktiv mulokotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimedia vositalari (multimedia – ko'pvositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida hayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob'yektlarining fazodagi harakati) effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq, qilinmoqda. Hatto, har bir oila multimedia vositalarisiz hordiq, chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalarining 1981 yildagi yalpi oboroti 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 1994 yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi.

Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim soxasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zo'ye ketganligi, avvalombor, ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayonida yana bir bor ishonch hosil qildik.

Elektronika bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ushbu atamani har xil formatdagi matn, grafika, animatsiya, tovush, video ko'rinishdagi ma'lumotlar

bilan ishlash imkoniyatini ta'minlovchi apparat vositalari sifatida tushunadilar. Bu CD/DVDROM, tovush kartasi, videokarta, tashqi yig'uvchilar kabilardan iborat.

Dizaynerlar, animatorlar, dasturchilar ushbu tushuncha orqali birinchi galda foydalanuvchiga bir necha yo'l bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beruvchi tayyor materialni tushunadilar (matn, tovush, animatsiya).

Multimedia tushunchasining eng umumlashgan holati (multimedia vositalari) – matn, rasmlar, sxema, jadval, diagramma, fototasvirlar, video va audiofragmentlar va boshqa har xil ma'lumotlarni raqam ko'rinishida ishlab chiqish, yaratishning dasturiy-apparat vositalari tushuniladi.

Bugungi kunda multimedia texnologiyalari inson faoliyatining biznes, ta'lim, tibbiyot va boshqa shu singari turli sohalarida qo'llanilishini ko'rish mumkin.

Multimedia (multi – ko'p, media – muhit) - bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko'rinishga ega bo'lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h.k) turli xil tashuvchilarda (optik disk, flesh xotira va h.k.) mavjud bo'lgan axborotdan foydalanish bilan bog'liq sohasidir.

Multimedia vositalari - bu apparat va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan juda turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiyalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Multimediali texnologiya-bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animatsiya, videotasvir, tovush v.h.

So'nggi yillarda multimedia mahsulotlari keng xaridorlar olishi mumkin bo'lgan darajaga keldi. Ularning ishlatilishi har doim ham bir xil emas. Turli multimedia jihozlarini sotib olishda quyidagi ko'rsatkichlarga ahamiyat berish kerak:

- berilayotgan materialning sifati va ishonchliligi;
- berilayotgan grafik materialning sifati;
- tovush jo'rliqi (matn, musiqiy bezak va boshqalar);



- videomaterial mavjudligi va ularning sifati;
- interfaollik imkoniyatlari (turli yo'nalishlarda ko'rish, materialni chuqur o'rganish, chop etish imkoniyati va boshqalar);
- do'stona interfeys.

Multimedia mahsuloti – tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animatsiya, rasmlar va slaydlar galereyasi, turli ma'lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo'lgan interfaol, kompyuterda ishlangan mahsulotdir .

Multimedia mahsulotlarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- ensiklopediyalar;
- o'rgatuvchi dasturlar;
- ongni rivojlantiruvchi dasturlar;
- elektron kitoblar;
- bolalar uchun dasturlar;
- o'yinlar va boshqalar.

Bugungi kunda multimedia sohasining rivojlanishi haqiqiy dunyoning soxta maketini yaratish imkonini berdi. Bu virtual voqelik yoki virtual borliq deb ta'riflanadigan tushunchalardir.

Multimedia foydalanuvchiga fantastik dunyoni (virtual) yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi rolini bajarmasdan, balki u erda avj olayotgan hodisalarda faol ishtirok etadi, shu bilan birga muloqot foydalanuvchi uchun odatlangan tilda birinchi navbatda tovushli va videoobrazlar tilida bo'lib o'tadi.

Virtual voqelik tushunchasini Jaron Lanier (Lane) taklif etgan. Virtual voqelik immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog'liq. Immersivlik deganda odamning virtual haqiqiylikda o'zini faraz qilishini tushunish lozim. Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual haqiqiylikdagi ob'ektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi.

Virtual voqelik tizimi deganda – biz imitastion muhitni yaratadigan dasturiy va texnik vositalar majmuasini tushunamiz. Interfaollikni ta'minlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko'pmodallikka,

ya'ni ko'z bilan ko'radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo'lishi kerak. Bu amallarni amaliyotda bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, katta xajmli tovush va videotizimlari, shuningdek odamning bosh qismiga o'rnatiladigan shlem va ko'zoynak displeylar, "hid sezadigan" sichqonchalar, boshqaruvchi qo'lqoplar, kibernetik nimchalar simsiz interfeys birgaligida ishlatiladi.

Virtual borliq turlari:

-Passiv virtual borliq (passive virtual reality) — inson tomonidan boshqarilmaydigan avtonom grafik tasvirni tovush bilan kuzatilishi;

-Tekshiriluvchi virtual borliq chegaralangan miqdorda foydalanuvchiga taqdim qilinadigan senariy, tasvir, tovushni tanlash imkonining borligi;

-Interfaol virtual borliq treking vazifasini bajara oladigan maxsus qurilma yordamida yaratilgan dunyo qonunlari asosida virtual muhitni foydalanuvchi o'zi boshqara olishidir;

-Treking virtual muhitdagi real ob'ektning joylashishi koordinatalarini (x, y, z) va uni fazoda joylashishi burchaklarini (a, b, g) berishga mo'ljallangan.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, kadrlarni qayta tayyorlash yo'lida Jaxon Valyuta Fondi, Umumjaxon banki, Yevropa Ittifoqi komissiyasi kabi nufuzli tashkilotlar katta tajribaga egadirlar. Biz bunga, ushbu tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan seminar va konferensiyalarning ishtirokchisi sifatida yana bir bor

ishonch hosil qildik. Avvalombor, o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish taxsinga sazovordir.

O'z o'rnida, multimedia vositalaridan keng foydalanish yo'lida ayrim ob'yektiv muammolar ham mavjud. Bulardan eng asosiysi - o'quvchilar uchun kerak bo'lgan o'quv materiallarini, qonunlarni va boshqa ko'rsatmalarni qo'llanma qilib kompyuter dasturlarini ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarida multimedia elementlarini qo'llash esa, kompakt disklarni (lazer disklari) qo'llashni talab qiladi. Hozirgi kunda bunday ko'rinishdagi kompakt disklarni respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati yo'qdir. Bular ma'lum bir miqdordagi mablag'ni oldindan jalb etishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan o'quvchilarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi.

Distant uslubi asosida o'quvchilarni o'qitish hozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. O'qituvchi va o'quvchining ma'lum bir masofada joylashganligi, o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sputnik aloqasi, kabel televideniyesi kabi vositalar asosida o'quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotlarni uzatish kanallarini rivojlanishi telekommunikatsiya sohasiga o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda. Mamlakatimizdagi barcha o'quv yurtlarini va biznes bilan shug'ullanayotgan kompaniyalarni distant uslubi asosida birlashtirilsa, o'qitish jarayonini va tijorat ishlarini yanada yuqori pog'onaga olib chiqadi.

Distant uslubi asosida o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Interaktiv texnologiyalar:

audiokonferensiyalar ;

videokonferensiyalar ;

ish stolidagi videokonferensiyalar ;

elektron konferensiyalar ;

ovozi kommunikatsiyalari ;

ikki tomonlama sputnik aloqa ;

virtual borliq ;

Nointeraktiv texnologiyalar:

- bosib chiqarilgan materiallar;

- audiokassetalar;

- videokassetalar;

- bir tomonlama sputnik aloqa;

- televidion va radio ko'rsatuvlari;

- disketa va CD-ROM lar.

Multimedik tizimlarni ko'rish uchun foydalanilayotgan kompyuterning hisoblash kuchini oshirishigina yetarli emas, buning uchun kushimcha apparatli qo'llab-quvvatlash analogli audio va videosignallarni rakamli ekvivalentga qo'shish va uning teskarisi uchun zarur bo'lgan analogli-rakamli (ARU) va raqamli-analogli o'zgartirgich (RAU) videoprotsessorlar, dekodeklar maxsus integral chizmalar va boshqalar ham zarur.

Odatda, yuqorida ko'rsatilgan qo'shimcha apparatli vositalar kompyuterlarning video va audio imkoniyatlarini kengaytiruvchi turli platalar ko'rinishida shakllanadi:

Ko'chmas video tasvirlar bilan ishlash uchun TARGA platasi;

- xarakatlanuvchi videotasvirlarni yozish va aks ettirish uchun Video Blaster, Video Spigot, Intel Smart, Video Recorder platalari;

- Microsoft firmasining Sound Blaster, Sound Galaxy Sound for Windows audioplatalari.

Video va audio axboroti bilan ishlashning zaruriyati ma'lumotlarning katta hajmi va ularni o'zlashning yuqori tezligi bilan bog'lik, ko'plab muammolarni yuzaga keltirdi. Bu, audio-video axborotning so'ngi texnologiyalarini rivojlantirish va katta sig'imdagi jamgaruvchilarning yangi namunalarni yaratishning boshlanishi bo'ladi. Masalan, 650 Mb sig'imli va 150 kb/s hisoblash tezligidagi CD-ROM optik kompakt diski shu jumladandir.

Multimedia uchun zamonaviy CD-ROM texnologiyalar taqdimnomasi ilk marta 1987 yili Sietldagi konferensiyada (Second Microsoft CD - ROM Sopfegense) bo'lib o'tdi va bu sana video va audioaxborotli to'laqonli multimedianing paydo bo'lishi boshlanishi deb hisoblanadi. Multimedia tarkib topishining bundan keyingi qadami CD-I texnologiyasi (Compact Disk Interactive - interaktiv videodisklar) bo'ladi, ular kompyuter yordamida lazerli video-murvatni boshqarish yo'li bilan kompakt diskdan axborotni ixtiyoriy tanlashni tashkil etishga imkon beradi. Bu texnologiyani Philips Electronics firmasi ishlab chiqadi va u Sony, IVM va Microware firmalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. IVM va Intel firmalari tomonidan ishlab chiqilgan va multimedia tizimlari ko'rilishi uchun foydalaniladigan DVI texnologiyasi to'rt bazaviy unsurdan tashkil topgan:

- videotizimning asosi bo'lgan ixtisoslashgan mikroprotssessor turkumi (masalan, tasvirlar kompressiyasi va dekompressiyasi uchun Intel firmasining I 82750RV piksel protssessori; signallarni raqamli qayta ishlash uchun Texas Instrument firmasining TMS320S10 protssessori; tasvirning videoxotirasida joylashgan ifoda uchun Iptel firmasining i82750DV displeyli protssessori va boshqalar); oxirgi paytlarda bulardan ham zamonaviylari bozorda taklif qilinmoqda;

- drayverlar (Video Driver, Audio Driver va VRAM Driver hamda CD - ROM Driver ) va alohida kichik tizimlar darajasidagi dasturiy interfeys: grafika va videoeffektlar ma'lumotlari kompressiyasi va dekompressiyasi AVSS (Audio-Video Support System); RTX (Real Time Executive) STD (Standart) multivazifadorligini ta'minlash, xotirani, kirish-chiqishni boshqarish va boshqalar;

- galma-gal paydo bo'luvchi audio va video axborot saqlovchi, ma'lumotlarni CD - ROM jamg'aruvchisidan foydalanilganda tezligi bir tekisligini ta'minlovchi maxsus shaklli fayllar;

- sub'yektiv qabul qilishga yo'naltirilgan va ba'zi yo'qotish yoki buzib ko'rsatishlarga yo'l qo'yuvchi axborotning turli namunalari tiklash algoritmlari. Bu texnologiyani qo'llashning eng oddiy misoli bo'lib, siyraklash algoritmi, ya'ni

tasvirning diskretligini kamaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. JPEG (Joint Photographic Experts Group) statik tasvirlarni siqishning eng ko'p tarqalgan algoritmidagi jarayonlar natijasida ko'chmas tasvirlarning vizual zararsiz 20, ..., 50 martagacha siqilishga olib borish mumkin.

Harakatlanayotgan tasvir va audioaxborotlar uchun prediktiv kodlash (Predictive Coding) algoritmlaridan foydalaniladi.

Bu guruh algoritmlari orasida MREG (Moving Pictures Experts Groups) algoritmlarini ajratib ko'rsatish mumkin, ular 25...50 marta siqish koeffitsientini ta'minlaydi. Jumladan, agar 24-betli rangli va 30 kadrlar /s.li 640x480 o'lchamli siqilmagan rakamli televizion tasvir uchun 27 Mb/s ma'lumotlarni o'zlash tezligi talab etilsa, unda MREG1 algoritmi talab etilayotgan o'zlash tezligini 550 kb/s.gacha kamaytiradi. MREG1 algoritmi, shuningdek, siqish koeffitsienti 5 ...10 marta bo'lgan audioaxborot kompressiyasi uchun ham qo'llaniladi. DVI texnologiyasida foydalaniladigan video siqish algoritmlarini ikkiga bo'lish mumkin:

- JPEG rusumli simmetrik chizimli algoritmlar, ular real vaqt miqyosida siqishni amalga oshirish va huddi videomagnitafondagi kabi sifat darajasida kompyuter (Real Time Video) vinchesteriga ma'lumotlarni yozishga imkon beradi, bunda CD - ROM ni tayyorlashga zaruriyat qolmaydi;

- MREG rusumli nosimmetrik kompressiya algoritmlari, ular SD-KRM (Production Level Video) ga yozish uchun mahsulotni bozorbop yo'sinda yaratishda foydalaniladi va multimedyaning tizimida videoni faqat aks ettirishni ta'minlaydi. Bunda videoni siqish darajasi 100...160 martaga yetadi, videomagnitafon yozuviga yaqin sifat saqlanadi.

25:1 siqish koeffitsienti displeyning chorak ekranida yaxshi sifatli videotasvirni olish uchun kifoya. 10:1 nisbatda siqilganda DVI texnologiyasi bo'lgan (Real Time Video) videotasvirli darcha to'liq ekranning 1/5 qismini egallaydi.

Audioaxborot yomon siqiladi (mumkin bo'lgan siqish koeffitsienti 1,9-2,5), bu hol tinglash a'zolarining buzib kursatishlarga befarq emasligi bilan izohlanadi.

Foydalanish jihatidan oddiy bo'lgan Media Text mualliflik tizimi yaqinda Michigan Universitetida (Ann Arbor) Macintosh kompyuterlari uchun ishlab chiqildi. Foydalanuvchi o'z dasturiy maxsulotini audio, grafika va animatsiyaga kiritishi hamda ularni xar bir bosqichda sichqonning ikki chiqillashidan oshirmagan holda bajara borib boshqa fragmentlar bilan birlashtirishi mumkin.

4. IVM Vetimedia /OS-2. IVM Sogr firmasi multimedia ishlanmalari sohasida ancha faol ish olib boradi. Firma Windows interfeysidan grafik foydalanishni qo'llab-quvvatlashdan tashkari o'zining OS/2 operatsion tizimini multimediyaning ko'pgina imkoniyatlari bilan jihozlagan. Ular orasida, eng avvalo, MM RM/2 nomini olgan Rgesentation Manageg (prezentasiya menejeri) dasturini ajratib ko'rsatish mumkin. U audio-platalar, SD-ROM rusumidaga ommaviy xotira va video proigrovatelni qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, Audio Visual Connection adapterining IVM uchun drayverini o'zida saqlaydi.1993 yilda chiqarilgan multimedyaning MRoveg tizimi foydalanuvchining videomuxitini (Visual User Environment) aks ettiradi. Video Live, Multimedia Mailer, Shared-X va SharedWhite Board modullari tizimining bazaviy komponentlaridir. Video Live moduli qo'shimcha plata yordamida videokadrlarni qo'yishni va ularni ishchi stansiya ekrani darchasida aks etishini qo'llab-quvvatlovchi utilitani namoyon etadi

#### **Multimedia tizimlarining tarkibi, tuzilishi, texnik va dasturiy vositalari**

Multimedia texnologiyalari asosan ikki tarkibiy qismdan iborat: apparat va dasturiy vositalar.

Multimedyaning apparat qismi standart kompyuter vositalaridan – monitor, kiritish – chiqarish vositalaridan, tovush kartalari, DVD va shuningdek– videokarta, TV-tyunerlar, CD-RW, DVD-RW turidagi jamlovchilardan hamda proektor, elektron doskalar kabilardan tashkil topgandir.

Multimedia tizimining dasturiy muhitini ham ikkiga bo'lish mumkin: amaliy va ixtisoslashtirilgan.

Amaliy dasturlar- foydalanilayotgan yoki loyihalashtirilgan amaliy dasturlar.

Ixtisoslashtirilgan dasturlar—bu dastur to'plamiga multimedia ilovalarini yaratuvchi dasturiy vositalar kiradi. Bu toifadagi dasturlarga grafik muxarrir, videotasvir muxarriri, tovushli axborotni hosil qilish va muxarrirlash vositalari kiradi.

Мультимедиа технология воситалари	
Аппарат воситалар	Дастурий воситалар
<p>Товуш карталари Видео карталар TV- тюнерлар График акселераторлар</p>	<p><b>Мультимедиа иловалари:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Энциклопедналар;</li> <li>• Ўқитишнинг интерактив курслари;</li> <li>• Ўйинлар;</li> <li>• Ахборотлар</li> </ul> <p><b>Мультимедиа иловаларни яратиш воситалари:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• видеотасвир мухarriri;</li> <li>• график мухarrir;</li> <li>• товуш файллар мухarriri;</li> <li>• гиперматн ва шу кабилар билан ишлаш дastурлари</li> </ul>

*1.1rasm. Multimedia tizimlarining asosiy vositalari.*

Multimedia tizimlarni tashkil etish uchun foydalanilayotgan kompyuterning hisoblash quvvatini oshirishgina yetarli emas, buning uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlovchi apparat: analogli-raqamli va raqamli-analogli o'zgartirgich videoprocessorlar, dekoderlar, fayllarni siqish uchun maxsus integral sxemalar va boshqalar zarur.

Quyida multimedia kompyuter va uning asosiy hamda qo'shimcha qurilmalari ta'riflari bilan tanishib chiqamiz.

Multimedia kompyuter – bu multimedia texnologiyasining amalga oshirish uchun maxsus apparat va dasturiy vositalar bilan ta'minlangan shaxsiy kompyuterdir.

### **Multimedyaning dasturiy ta'minoti**

Multimedia mahsuloti yaratish uchun quyidagilarni qo'llash mumkin:

1. Butun malakali dasturchilar guruhi bilan ishlashni talab qiluvchi dasturlash tilidan foydalanish.

2. Instrumental vositalardan foydalanish.

Instrumental vositalarga quyidagi dasturlar misol bo'ladi: Macromedia Director, Formula Graphics Multimedia System, Multimedia Creator, Asymetrix ToolBook, AuthorWare Professional , Adobe PageMaker, Adobe Photoshop, Adobe Flash, 3D



Max va boshqa shu kabi maxsus dasturiy mahsulotlar. Masalan, sanab o'tilganlardan:

-Macromedia Director – taqdimot va multimedia mahsulotlari yaratishga xizmat qiladi. Ushbu dastur MMX-texnologiyalar bilan ishlaydi va tugmalar, slaydlar, klip va animatsiyalar bilan ishlashga imkon beradi;

-Formula Graphics Multimedia System – interfaol rejimda ishlovchi multimedia dasturlarini tayyorlashni ta'minlaydi.

-PhotoShop –rasmlarni qayta ishlash,

-Adobe Premier yoki Vstudio 2 –videokliplarni qayta ishlash,

-Stoik Software - tasvirlarni qayta ishlash, tovush yozish va uni qayta ishlash imkoniyatlariga ega.

Ta'lim tizimida multimedia loyihalarni ishlab quchun nima qilish kerak, buning uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan Microsoft Office dasturlaridan foydalanish yetarli. Agar loyihangizga ma'lumotlar bazasi qo'shishni istasangiz, sizga MS Access, animatsiya effektlari bilan taqdimot tayyorlashingiz uchun esa MS PowerPoint dasturi kerak bo'ladi.

Grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborot va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy amaliy dasturlar bilan ishlash mumkin. Masalan, oddiy Word redaktorida tayyorlangan faylni grafik faylga aylantirish, bir formatdagi grafik fayllarni boshqa formatdagi grafik fayllarga aylantirish, bir necha multimedia ilovalarini yagona multimedia ilovalariga jamlash, multimedia ilovalarini o'lchamini, hajmini, sifatini va tuzilishini multimedia dasturlari orqali amalga oshirish mumkin.

### **Multimedyaning apparat va dasturiy ta'minotiga talablar:**

Multimedia tizimlaridan foydalanishda va ularni loyihalashtirish jarayonida dasturiy va apparat ta'minotlarga aniq talablar qo'yiladi.

Kompyuterning apparat qismiga talablar:

-1 Gb dan kam bo'lmagan operativ xotira (RAM);

-120 Gb dan yuqori hajmga ega bo'lgan qattiq disk;

-ma'lumotni yozish va o'qish tezligi katta bo'lgan DVD -RW kompakt – disklariga mo'ljallangan diskovod;

-3D grafikani ta'minlaydigan videoadapter;

-rangli oqimli printer, fotobosmaga ega bo'lishi shart;

-yuqori sifatli audioadapter va yuqori quvvatli akustik tizim (+mikrofon);

-USB port;

-simsiz qurilmalarni ulash uchun infraqizil port.

IBM va Microsoft firmalarining birgalikdagi ishlari natijasida ma'lumotlarni turli formatlarini ta'riflaydigan spetifikastiyalar va dasturiy interfeyslar yaratilgan:

-RIFF – ma'lumotlarni formatini aniqlaydi;

-MCI – multimedia periferiyasi va funkstiyalari bilan o'zaro muloqatda bo'lish uchun mo'ljallangan dasturiy interfeys, masalan (videoproigvatel) multimedia funkstiyalari bilan muloqotda bo'lishi;

-DV – MCI – raqamli tasvirlarni birlashtiruvchi dasturiy interfeys. U IBM va Microsoft firmalari bilan birgalikda yaratilgan.

Viewer Author Toolkit yordamida yaratilgan multimedia ilovalari ishga tushirish moduli yordamida ishga tushiriladi.

Hozirgi paytda multimedia tizimlarida zamonaviy OT lari (masalan, Windows 7 yoki XP) dan keng foydalaniladi. Fayllarni turli formatlarga konvertastiya qilish imkoniyatlari kengaytirilayapti. Axborotni kodlashtirish va siqish tizimlari yaratilgan. Videoqamrov, video va audioeshittirishga (video va audio pleer) mo'ljallangan dasturlar mavjud.

Multimedia texnologiyalarini inson faoliyatining ko'p soxalaridagi tadbqiqiga ko'plab misollar keltirish mumkin, lekin bilish kerakki eng asosiysi, bu texnologiya kompyuterni intellektual imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi, bu esa insonning ijodiy potensialini kuchaytirishga turtki bo'ladi.

### **Multimedia ilovalari turlari va ularni yaratish bosqichlari**

Sifatli multimedia ilovalari ishlab chiqishga yo'naltirilgan turli-tuman, bir-biridan farqli texnologik usullar mavjud. Ushbu ilovalarni yaratish va ulardan foydalanishda bir qator asosiy texnologik tavsiyalarga amal qilish kerak.

Multimedia ilovalarini yaratish uchun asos sifatida materialni elementlarga bo'lish va ierarxiya tarzida ko'rgazmali ravishda taqdim etishga asoslangan holda tizimlashtirish usulini o'zida mujassam etgan materialni qamrab olish modelini olish mumkin.

Multimedia ilovasini loyihalashning boshlang'ich bosqichida materialni qamrab olish modeli quyidagilarga imkon beradi:

- material mazmunini aniq belgilash;
- mazmuni ko'rgazmali, aniq va ochiq tarzda taqdim etish;
- multimedia ilova komponentlari tarkibini aniqlash.

Multimedia ilovalari quyidagilarga bo'linadi:

- prezentastiyalar;
- animastion roliklar;
- o'yinlar;
- videoilovalar;
- multimediali galereyalar;
- audioilovalar;
- veb uchun ilovalar.

### **1.2. Multimedia ilovalaridan 3D texnologiyalari.**

Multimedia vositalari apparat va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan juda turli-tuman muxitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animastiyalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Multimedia sohasida 3D texnologiyalarning kirib kelishi bu sohada yangi davrni boshlab berdi. "D" atamasi inglizcha "dimensions" so'zidan olingan bo'lib, "o'lchamlar" ma'nosini beradi. Ta'kidlash joizki, 3D texnologiyasi tasvirni vizual va tovushli uzatib berishning dunyodagi eng ilg'or usulidir.

3D printerlar - uch o'lchamli chizmalar asosida narsa-buyumlar "chop etuvchi" printerlardir. Hozircha bu kabi ishlanmalar tor doirada amalga oshirilayotgan bo'lsa, yaqin kelajakda bemalol uy sharoitida 3D-printerdan masalan bir juft krossovka, kiyim yoki ro'zg'or buyumi chiqarib olishning imkoni bo'ladi.



*1.2 rasm. 3D- printerlar.*

Hozirgi kunda uch o'lchamli haykallar, yirik ob'ektlarning kichraytirilgan modellari (mashinalar, samolyotlar, binolar), shuningdek, turli ilmiy ishlanmalar modellarini yasash imkoniyati mavjud. Misol uchun, Lockheed Martin korporastiyasi uchuvchisiz boshqariladigan " Polecat " samolyoti uchun jihozlarning katta qismini tezkor uch o'lchamli bosma texnologiyasi asosida chiqarmoqda.

Uch o'lchamli chop etilayotgan mahsulotlarning narxi pasayishini inobatga olsak, ushbu texnologiyaga talab oshmoqda. Bugungi kunda Boeing kompaniyasi o'z samolyotlarining 200 dan ortiq detallarini 3D-chop etish texnologiyasi asosida ishlab chiqmoqda.



*1.3 rasm. 3D printerlar yordamida ishlab chiqilgan mahsulotlar.*

3D-printerlarda narsa-buyum yasash konstepstiyasi, bizga yana bir bor "uchinchi olam"ning mo'jizalardan iborat ekanligini ko'rsatmoqda.

3D-printerlar qatorida bugungi kunda jahon 3D displeylar faol ilgari surilmoqda.

3D displeylar –ko'zoynak yoki boshqa qo'shimcha qurilmalarsiz inson tomonidan hajmdor sifatida idrok etiluvchi tasvirni chiqara olishga qodir qurilmalardir. Ular yordamida virtual voqe'likni yaratish imkoni kengaydi.

3D texnologiyalari reklama amaliyotida hamda marketingda xam keng qo'llanilmoqda.

Mutaxassislarining fikricha 3D texnologiyalar tovar ishlab chiqarishda ham revolyustiyaga olib keladi. Ushbu texnologiyaning rivoji yangicha davrni boshlab bermoqda.

### Multimedia texnologiyasining qo'llanish sohalari.

Bugungi kunda multimedia texnologiyalari inson faoliyatining biznes, ta'lim, tibbiyot va boshqa shu singari turli sohalarda qo'llanilishini ko'rish mumkin. Ushbu faoliyat yo'nalishlarida multimedia mahsulotlarini yaratish uchun keng ko'lamdagi dasturiy mahsulotlar mavjud. Ularning ayrimlari multimedaning alohida komponentlari bilan ishlashga mo'ljallangan.

Umumiy olib qaraganda multimedia texnologiyalaridan foydalanuvchilarni 3 turga bo'lish mumkin. Ular: oddiy foydalanuvchilar, biznes sohasida foydalanuvchilar, turli kasb ustalarini kiritishimiz mumkin.



1.4 rasm. Zamonaviy multimedia tizimlarining turlari va tarkibi.

Multimedia texnologiyalaridan oddiy foydalanuvchilar quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

-O'qitish dasturlarida – bunda o'qitish jarayonida turli rasmlar animatsiyalar, elektron darslik, elektron kitob va elektron o'quv qo'llanmalar bo'lishi mumkin.

-Enstiklopediyalar – bu biror–bir atamani yoki ilovani tushuntirishda turli multimedia ilovalarini qo'llash.

-Ma'lumotnomalar – berilayotgan ma'lumotni turli shaklda keltirish va tushinishni osonlashtirish.

-Grafik paketlar – turli grafik ilovalar ustida ishlash imkoniyatini beruvchi dasturlar.

### **Multimedia tizimlari**

#### **Oddiy foydalanuvchi**

O'qitish dasturlari

Enstiklopediyalar

Ma'lumotnomalar

Grafik paketlar

Musiqqa tahrirlovchilar

#### **Biznes ilovalar**

Taqdimotnomalar

Videokonferenstiyalar

Tovushli pochta

IP-telefoniya

#### **Kasb ustalariga**

Kompyuter grafika vositalari

Animatsiya

Videofilmlar ishlab chiqarish

Musiqqa studiyalari

Multimedia texnologiyalarini tibbiyotda qo'llashning keng imkoniyatlari mavjud va u dolzarbdir. Avvalam bor bu ma'lumotlar va bilimlar omboriga

asoslangan tibbiyot ekspert tizimlarini yaratish, jarroxlilik ishlarini olib borish davrida video va audio qurilmalar orqali yoritish usullarini ishlab chiqish, mutaxassislarni zamonaviy jarroxlilik va davolash usullariga o'qitib malakasini oshirishda qo'llash. Multimedia texnologiyalari dori-darmon va dorivor o'simliklar katalogini yaratishda shuningdek tibbiyot o'rta ta'lim talabalarini o'quv jarayonlarida (rangli tasvirda va animatsiya holatida qon aylanish tizimi, mushak va nafas olish tizimlari) qo'llash katta samara berishi mumkin. Multimedia texnologiyasining tadbiiq etish soxalaridan asosiysi keng manoda ta'limdir: ya'ni videoenklopedia, interaktiv yo'naltirgich, trenajerlar, intellektual o'yinlar, kompyuter o'qitish tizimi va masofaviy ta'lim yo'nalishlaridir.

Multimedia texnologiyalari ta'limning turli soxalarida maktab, listey, kollej, institut va universitetlarda keng miqyosda o'z o'rnini egallamoqda.

### **1.3 Phet programmasining ananaviy laboratoriyalaridan farqi.**

Masofaviy ta'limda jarayonida tabiiy fanlardan laboratoriya ishlarini tashkillashtirishning o'ziga xos muammolari mavjud. Aynan bu muammoni virtual laboratoriya ishlaridan foydalangan holda tashkillashtirish mumkin. Bu o'quv modulimizda aynan yuqorida keltirilgan muammoni hal qilishga harakat qilamiz. O'quv jarayonida modellardan foydalanish yangi usul emas. Qadim-qadimdan o'quv-o'rganish mobaynida modellardan foydalanib kelingan. Simulyatorlar o'quv jarayoning qariyb barcha jabhalarida: boshlang'ich ta'limdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha, oddiy til o'rganishdan to mexanika soxalarigacha qo'llanilishi mumkin. Keyingi vaqtlarda xattoki meditsina sohasida ham simulyatorlardan foydalanilmoqda. Ammo biz ushbu ma'ruzada asosiy e'tiborni kompyuter simulyatorlariga qaratamiz.

## ВИРТУАЛ МАКОНЛАР




*1.5 rasm. Virtual makonlar.*

Kompyuter simulyatorlaridan asosan ikki yo'nalishda foydalanish mumkin: haqiqiy ob'ektlarni modellashtirish hamda ushbu modellarni rivojlantirish. Hayotiy ob'ektlarni modellashtirishda eng sodda chiplardan tortib butun boshli murakkab kompyuter tizimlarigacha virtual prototiplarini yaratish mumkin. O'quvchilar ushbu virtual modellarni o'rganish jarayonida ularning ishlash prinsip va usullarini yanada takomillashtirishlari ham mumkin bo'ladi.

O'quv yurtlarida simulyatorlardan foydalanish kerakmi? Ushbu savolga eng qisqa hamda bizning nazdimizda to'g'ri bo'lgan javob, "Ha, albatta"dir. Simulyatorlardan foydalanishning asos sabablaridan biri ularning real ob'ektlarga nisbatan juda ham arzon alternativ ekanligidadir. Hammaga ma'lumki, axborot texnologiyalar va kompyuter sohasini o'qitishda asosan leksiyalardan foydalaniladi; nari borsa programmalash tillarini o'qitishda ma'lum bir dasturlar tuzish bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. Ammo kompyuter jixozlarini yasash, operastion va network tizimlarini o'rnatish hamda sinovdan o'tkazish qimmatbaho uskunalarga extiyoj tug'diradi.





*1.6 rasm Elektron ta'lim.*

Simulyatorlar esa shunday haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda kompyuter hamda network qurilmalarini yasash va sinovdan o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Bu o'z-o'zidan nafaqat katta miqdorda mablag'lar tejaliishiga, balki ularga umuman ehtiyoj ham tug'dirmaydi. Simulyatorlarning qariyb hech qanday moliyaviy mablag'lar talab etmasligi ma'lum tadqiqotlarni talabalar tomonidan yuzlab, kerak bo'lsa minglab marotaba qayta-qayta amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Simulyatorlardan foydalanishning yana bir afzallik tomoni ularning xavfsiz ekanligidir. Ba'zi tadqiqotlarni amalga oshirish inson hayoti uchun xavf tug'diradi, masalan, ekologik xavfli zonalarni kuzatish jarayonida ma'lumotlarni yig'ish uchun foydalaniladigan network tarmog'ini o'rganish. Bunday tadqiqot katta miqdorda moliyaviy xarajat talab etibgina qolmasdan, tadqiqotni olib boruvchilar hayotiga xavf ham tug'diradi. Simulyatorlar yordamida esa ekologik xavfli zona hamda u yerga mos bo'lgan network tarmog'i virtual holatda yasalishi va ularning ustiga istagancha eksperimentlar o'tkazilishi mumkin.

Simulyatorlardan foydalanish jarayonida talabalar ma'ruza vaqtida o'rgangan nazariy bilimlarini virtual bo'lsada hayotga tadbiiq qiladilar. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadbiiqotlarning rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadilar. Bundan tashqari o'sha simulyatorlarning ham yanada rivojlanishiga, yanada haqiqiy

hayotiy tadqiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda o'z hissalarini qo'shishlari mumkin. Bu o'z o'rnida talabalarni faqatgina "tinglovchi" vazifasida qolmasdan, bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashuvchilarga aylantiradi.



1.7 rasm. Virtual ta'lim.

Hozirgi fan-texnikaning katta sur'atlarda rivojlanishi real-hayotiy tadqiqot uskunalarini ushbu rivojlanish bilan bir qatorda ketishida qiyinchilik tug'diradi. Simulyatorlarda esa bunday to'siqlar mavjud emas va xatto ushbu "virtual tadqiqotxonalar" fan-texnika rivojlanish tezligiga qo'shimcha tezlik qo'shadi. Albatta har sohada bo'lgani kabi simulyatorlardan foydalanishga nisbatan ham qarshi fikrlar mavjud. Ulardan eng birinchisi simulyatorlarning haqiqiy ob'ekt va jarayonlarni to'la-to'kis ifoda eta olmasliklaridir. Bu simulyatorlar yordamida olingan natijalar bilan hayotiy tajribalardan hosil bo'lgan natijalar o'rtasida tafovutlar paydo bo'lishiga olib keladi. Ba'zi simulyatorlar esa o'yin shaklida yasalgan, masalan, uchuvchilik simulyatorlari. Ular foydalanuvchilarda doimiy ishqibozlik kelib chiqishiga olib keladi va natijada tadqiqotdan ko'ra ko'proq o'yin tarafi bosib ketadi. Bu esa o'z navbatida talabalarda o'qish va tadqiqotlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga olib keladi.

## Simulyatorlar.Crocodile Physics dasturi haqida.

